



Axborot xabarnomamizning o'n to'rtinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n to'rtinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordamberishga qaratilgandir.

Ushbu son 2024-yilning yanvar-mart oylari oralig'ida O'zbekistonga ko'rsatilgan texniyordamga bag'ishlangan. Savdoni himoya qilish chora-tadbirlari - antidemping, kompensatsiya bojlari va himoya choralari bo'yicha uchta qonun hujjatlarini ishlab chiqishyakunlanganligi chorakning muhim voqeasi bo'ldi. Bu O'zbekiston uchun JST talablarigamuvofiq yangi savdoni himoya qilish rejimini yaratadi. Qonun loyihasi hozirda O'zbekistonning bosh muzokarachisiga topshirilgan va kuchga kiringunga qadar parlamentmuhokamasiga kiritilishi kutilmoqda. Yana bir muhim voqea JIDU bilan birgalikda O'zbekiston savdo muzokarachilari ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kengqamrovli Savdo siyosati bo'yicha o'quv dasturi 2024 XSM tomonidan ishga tushirilishi bo'ldi. O'quv seminari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda "JST kafedralari" dasturi ("WTO Chairs Programme") bilan hamkorlik doirasida olib borilmoqda. 11 kursdan iborat dastur milliy savdo siyosati va qonunchiligini JST talablariga muvofiqlashtirish bo'yichainstitutsional salohiyatni oshirish uchun muhim vosita sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, bu JSTga a'zo bo'lgandan keyin bundan manfaat ko'rishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbuchorakda 100 dan ortiq mutasaddilar va JIDU talabalari kursning dastlabki besh modulidaishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу обунани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

[Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish](#) jarayonida unga qo'shilayotgan mamlakatning amaldagi savdo-iqtisodiy qonunlari va siyosati muhokamaning diqqat markazida turadi va a'zolik shartlari ular asosida kelishiladi. Shundan kelib chiqqan holda, muzokarachilar siyosat va qonunchilikni JST kelishuvlariga muvofiqlashtirish uchun qanday tuzatishlar kiritish kerakligini ko'rib chiqadilar. Loyiha asosiy hujjatlarni tahlil qilish va keyinchalik muzokaralar jarayonida ulardan foydalanish uchun zarur tuzatishlar kiritish bo'yicha tavsiyalar berish orqali ushbu jarayonga ko'maklashadi.

Hisobot choragida loyiha tovar savdosi, xizmatlar savdosi va qishloq xo'jaligi sohalarida konsultativ yordamini ko'rsatishni davom ettirdi. Tovarlar savdosi uchun bozorga kirishsohasida, benefitsiarning talabiga ko'ra, loyiha O'zbekiston va JST a'zolari o'rtasidagi muzokaralar uchun zarur bo'lgan tovar ayirboshlash tahlilini o'tkazishga yordam berdi. O'tgan chorakda O'zbekiston JSTning yana uchta a'zosi bilan bozorga kirish protokollarini imzoladi va ularning umumiy sonini 11 taga yetti. Xizmatlar savdosi sohasida loyiha moliya va telekommunikatsiya xizmatlari kabi ayrim tarmoqlarda xizmatlar savdosini liberallashtirishning iqtisodiy asosi bo'lgan bir qator siyosiy va normativ masalalar bo'yicha texnik ko'mak ko'rsatdi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lish uchun davlat o'zining amaldagi milliy qonunchiligi JST kelishuvlari talablariga muvofiqligini ta'minlashi kerak. Loyiha O'zbekiston milliy qonunchiligini qayta ko'rib chiqish va zarur o'zgartirishlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda yordam beradi.

O'tgan yili loyihaga O'zbekistonning savdodagi himoya choralari va savdo bilan bog'liq investitsiya choralari bo'yicha qoidalar va dasturlarni JST Savdo bilan bog'liq investitsiya choralari t'g'risidagi bitimi (TRIMS) talablariga muvofiqligini ko'rib chiqish bo'yicha murojaat kelib tushgan edi.

O'tgan chorakda investitsiyalar, maxsus iqtisodiy zonalar, sanoatni rivojlantirish dasturlari, mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi masalalari bo'yicha to'qqizta qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqildi. Joriy chorakda ularning JST TRIMS bitimi talablariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

O'tgan yili JST talablariga muvofiq savdoda himoya qilish rejimini o'rnatish uchun murojaat ham olingan edi. O'tgan chorakda bu borada sezilarli yutuqlarga erishildi: loyiha ko'magida O'zbekistonda savdoda himoya choralari bo'yicha yangi qonunchilik ishlab chiqildi. Loyiha antidemping, kompensatsiya bojlari va himoya choralari qamrab oluvchi uchtategishli qonunni ishlab chiqishga hissa qo'shdi. Ushbu ish loyiha doirasida ilgari o'tkazilgan O'zbekistonda savdodagi himoya choralari rejimi va JST qoidalarini baholashi tahliliga asoslangan edi. Qonunlar O'zbekiston bosh muzokarachisiga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi. Savdoda himoya choralari to'g'risidagi qonun hujjatlari kuchga kirishi uchun parlament muhokamasiga taqdim etiladi. Bundan tashqari, loyiha savdoda himoya choralari bo'yicha milliy organni tashkil etish asoslarini yaratishga yordam berdi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Mamlakat JSTga a'zo bo'lganida tegishli davlat mutasaddilari va mansabdor shaxslari JSTga a'zolikning texnik talablari bo'yicha zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, loyiha JST kelishuvlari va a'zolikning texnik jihatlari sohasida mutasaddilarining salohiyatini oshirish va texnik ko'mak orqali mustahkamlashga yordam beradi.

O'tgan chorakda uzoq muddatli institutsional salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish hamda O'zbekistonga JST a'zoligidan manfaatdor bo'lish imkonini beruvchi noyob o'quv dasturi ishga tushirildi. Loyiha doirasida XSM JIDU bilan hamkorlikda 11 kursdan iborat va muzokarachilar, mutasaddilar hamda O'zbekiston mansabdor shaxslarining ehtiyojlariga javob beruvchi savdo siyosati bo'yicha kompleks o'quv dasturini ishlab chiqdi.

Dastur JST asoslarini qamrab oladi va savdo siyosatini ishlab chiqish, uni tartibga solishda institutsional salohiyatni rivojlantirish uchun muhim vosita bo'lishga mo'ljallangan.



Ma'ruzachilar va ishtirokchilar XSM tomonidan JIDU bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan savdo siyosati bo'yicha XSM – JIDU o'quv dasturi doirasida tashkil etilgan bir necha kurslarda qatnashdilar.

Fotosurat: XSM

XSM tomonidan loyiha doirasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturi salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, universitet bilan hamkorlikda uning hududida amalga oshiriladi. Kurslarda JIDU huquq fakulteti talabalari ham qatnashishi mumkin. Trening 26 yanvar kuni Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi vakilining kirish so'zi bilan boshlandi. Chorak davomida 5 ta modul taqdimetildi, ularda 60 nafar mutasaddilar va 116 nafar talaba ishtirok etdi.

Dastlabki ikkita moduldam olish kunlari o'tkazildi. U JSTning [diskriminatsiya qilmaslik bo'yicha asosiy tamoyillarini](#) taqdim etdi, ikkinchisi esa [xizmatlar savdosidagi asosiy qoidalar, shuningdek, savdo bilan bog'liq investitsiya choralari umumiy tahliliga](#) bag'ishlandi; 9-fevralda "JST kafedralaridasturi" ko'magida o'tkazilgan uchinchi modul [bozorga kirish bo'yicha muzokaralarko'nikmalarini](#) rivojlantirishga qaratildi; 19-fevralda bo'lib o'tgan to'rtinchi modul [qishloqxo'jaligi bo'yicha JST qoidalarini](#), 26-27-mart kunlari bo'lib o'tgan beshinchi modul esa ishtirokchilarni [savdodagi himoya choralari](#) asoslari bilan tanishtirdi.

Loyiha, shuningdek, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lganidan keyin savdo qonunchiligi vasiyosatini amalga oshirish uchun uzoq muddatli institutsional salohiyatni yaratishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu maqsad joriy chorakda Shveysariyaning Bern shahrida 2024 yil Qishki akademiyasi doirasida nufuzli Jahon savdo instituti (WTI) tomonidan tashkil etilgan kurslarda olti nafar davlat mutasaddilarining ishtiroki bilan qo'llab-quvvatlandi.

2024-yil yanvar va fevral oylarida davlat mutasaddilari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha: JSTning Chegarada qo'llaniladigan choralar va savdo tartib-taomillarini soddalashtirish to'g'risidagi huquqi; JSTning antidemping va himoya choralari to'g'risidagi huquqi; JSTning subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi huquqi; va Xizmatlar savdosi huquqi va siyosati kurslarida qatnashdilar. Olti nafar mutasaddilardan besh nafari yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tdi. Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va O'zbekiston Davlat aktivlarini boshqarish agentligi kabi vazirlik va idoralar vakillari hisoblanadi.



Jahon savdo instituti WTI Qishki akademiyasiningba'zi ishtirokchilari kurs ular uchun nimanianglatishi haqida o'z izohlari bilan bo'lishdilar.

Fotosurat: WTI

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

Ushbu chorakda SFS texnik sohasidagi salohiyatni rivojlantirish bo'yicha ishlar davom etdi. Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi to'g'risidagi yangi qonun loyihasi ko'rib chiqilgach, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va salomatlik qo'mitasining taklifiga binoan ekspertning Toshkent shahriga missiyasi tashkil etildi va oziq-ovqat mahsulotlarini nazorat qilish organlari rahbarlari va mutaxassislari bilan qonun loyihasining mohiyati va uning qabul qilinishi muhimligini tushuntirish maqsadida uchrashuv tashkil etildi.

Shu bilan bir qatorda 25–27 va 28–29 mart kunlari o'quv seminarlari tashkil etildi. O'n beshta qisqa modullar orqali ilmiyxodimlar, oziq-ovqat sanoati vakillari va mutaxassislar oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish bo'yicha eng so'nggi metodlar va tartiblar bilan tanishtirildi.



Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish bo'yicha trening ishtirokchilari

Fotosurat: XSM

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihaning asosiy maqsadi biznes sektori, jumladan, tadbirkor ayollar va ayollar uyushmalari o'rtasida O'zbekistondagi eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun JSTga a'zolikning mumkin bo'lgan afzalliklari haqida xabardorlikni oshirishdan iborat. Loyiha doirasida mamlakatning turli hududlarida xususiy sektor vakillari uchun bir nechta shunday o'quv seminarlari o'tkazildi. Loyiha benefitsiarning qo'shimcha shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etish bo'yicha keyingi so'rovlarini kutmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)